

TIBBIY TURIZM TURISTIK MAVSUMIYLIKNI YUMSHATISH STRATEGIK VOSITASI SIFATIDA: NAZARIY TAHLIL VA XALQARO TAJRIBA

Barotov Umidjon Mahmud o‘g‘li

*Buxoro davlat universiteti “Turizm va mehmonxona
xo‘jaligi” kafedrasida mustaqil izlanuvchi*

u.m.barotov@buxdu.uz

Sayfulloyeva Sevara Sirojiddinovna

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro
davlat tibbiyot instituti talabasi*

drsirojiddinovna@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada tibbiy turizm turizm mavsumiylikni yumshatish strategik vositasi sifatida nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tibbiy turizmning to‘rt asosiy turi (klassik tibbiy, wellness va sog‘lomlashtirish, balneologik, profilaktik) va ularning mavsumiy tebranishlarni yumshatish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, tibbiy turizm an’anaviy turistik talabning iqlim sezgirligidan farqli ravishda yil davomida nisbatan turg‘un talab keltirib chiqaradi va shu sababli madaniy meros destinatsiyalarining bimodal mavsumiy profilini yumshatish uchun samarali strategik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro tajribada Tailand, Hindiston, Turkiya, Vengriya va Chexiya kabi mamlakatlar misollari ko‘rsatadiki, tibbiy turizmni rivojlantirish nafaqat mavsumiylikni yumshatadi, balki yuqori qiymatli turistlar segmentini jalb qilish hamda mahalliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta‘minlaydi.

Kalit so‘zlar: *tibbiy turizm, sog‘liq turizmi, mavsumiylik, mavsumiylikni yumshatish, balneologik turizm, wellness turizm, sanatoriy-kurort, turizm strategiyasi.*

Аннотация: В статье медицинский туризм теоретически анализируется в качестве стратегического инструмента сглаживания сезонности туризма. Рассматриваются четыре основных вида медицинского туризма (классический медицинский, велнес и оздоровительный, бальнеологический, профилактический) и механизмы сглаживания сезонных колебаний. Анализ показывает, что в отличие от климатической чувствительности традиционного туристского спроса медицинский туризм генерирует относительно стабильный спрос в течение года и поэтому служит эффективным стратегическим инструментом сглаживания бимодального сезонного профиля культурно-исторических дестинаций. Международный опыт Таиланда, Индии, Турции, Венгрии и Чехии показывает, что развитие медицинского туризма не только

сглаживает сезонность, но и привлекает высокодоходный сегмент туристов, обеспечивая диверсификацию местной экономики.

Ключевые слова: *медицинский туризм, туризм здоровья, сезонность, сглаживание сезонности, бальнеологический туризм, велнес-туризм, санаторно-курортное лечение, туристская стратегия.*

Abstract: The article theoretically analyzes medical tourism as a strategic tool for mitigating tourism seasonality. Four main types of medical tourism (classical medical, wellness and recreational, balneological, preventive) and mechanisms for mitigating seasonal fluctuations are examined. The analysis demonstrates that, unlike the climatic sensitivity of traditional tourism demand, medical tourism generates relatively stable demand throughout the year and therefore serves as an effective strategic tool for mitigating the bimodal seasonal profile of cultural-heritage destinations. International experiences from Thailand, India, Turkey, Hungary, and the Czech Republic show that developing medical tourism not only mitigates seasonality but also attracts high-value tourist segments and ensures diversification of the local economy.

Keywords: *medical tourism, health tourism, seasonality, seasonality mitigation, balneological tourism, wellness tourism, sanatorium-resort treatment, tourism strategy.*

KIRISH

Turizm mavsumiyligi - turistik talabning yil davomida notekis taqsimlanishi - jahon turizmining eng dolzarb strukturaviy muammolaridan biri hisoblanadi. Mavsumiy tebranishlarni yumshatish maqsadida xalqaro amaliyotda ko‘plab strategik yondashuvlar ishlab chiqilgan: yangi mahsulotlar yaratish, narx siyosati, marketing strategiyalari, yangi maqsadli bozorlarni jalb qilish va turistik mahsulotlar diversifikatsiyasi [1, 2]. Ushbu strategiyalar orasida tibbiy turizm o‘ziga xos o‘rin tutadi, chunki u an’anaviy turistik talabning iqlim sezgirligidan farqli o‘laroq, yil davomida nisbatan turg‘un talab dinamikasiga ega.

Tibbiy turizm (medical tourism yoki health tourism) - salomatlikka doir xizmatlar, davolanish, sog‘lomlashtirish yoki profilaktik muolajalardan o‘tish maqsadida o‘z mamlakatidan tashqariga chiqadigan turistlar harakati sifatida ta’riflanadi [3]. Jahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, tibbiy turizm sektori 2000-yillarning boshlaridan boshlab eng tez o‘sayotgan turizm segmentlaridan biriga aylanib, yillik o‘sish surati 15-25 foizni tashkil etmoqda [4]. Bu o‘sish global aholining keksayishi, sog‘liqqa e’tiborning kuchayishi, tibbiy xizmatlar narxlarining mamlakatlar o‘rtasidagi farqi va tafovutlari kabi boshqa omillarga bog‘liqdir.

Mazkur maqolaning maqsadi - tibbiy turizmni turizm mavsumiyligini yumshatish strategik vositasi sifatida nazariy jihatdan tahlil qilish, uning asosiy turlari va mavsumiylikka ta'sir mexanizmlarini tadqiq qilish, hamda xalqaro tajribadan kelib chiqib, madaniy meros destinatsiyalari uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Tahlil mavjud xalqaro adabiyotlar va tajribalarning kompleks o'rganilishiga asoslanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tibbiy turizm tushunchasi va uning mavsumiylik bilan o'zaro aloqasiga oid xalqaro adabiyotlar so'nggi 20-25 yil davomida sezilarli darajada rivojlanib bordi. Carrera va Bridges 2006-yildagi tadqiqotda tibbiy turizmni o'z hududidan tashqarida, tananing yoki ruhiy holatining yaxshilanishiga qaratilgan tashkillashtirilgan sayohat sifatida ta'rifladilar va uning ikki asosiy turini ajratdilar: davolovchi va profilaktik [3]. Connell esa 2006-yildagi sharhida tibbiy turizmning global o'sishini geosiyosiy va iqtisodiy omillar nuqtai nazaridan tahlil qilib, rivojlanayotgan mamlakatlarning tibbiy xizmatlar narxi va sifati raqobatbardosh bo'lib borayotganligini ta'kidlagan [5].

Smith va Puczkó 2009-yilda "Tibbiy va Sog'lomlashtirish turizmi" monografiyasida bu sohaning kompleks tasnifini taklif qildilar va tibbiy turizmni kengroq sog'liq turizmi konsepsiyasi doirasida ko'rib chiqdilar [6]. Mualliflar sog'lomlashtirish turizmi hamda an'anaviy tibbiy turizm o'rtasidagi farqlarni aniq belgilab berishdi va har bir turning o'ziga xos bozor xususiyatlarini tahlil qildilar. Bu tasnif keyingi ko'plab tadqiqotlar uchun konseptual asos bo'lib xizmat qildi va xalqaro empirik tadqiqotlarda asosiy yo'nalish sifatida qo'llanildi.

Mavsumiylikni yumshatish vositasi sifatida tibbiy turizmning o'рни alohida tadqiqotlarda ham yoritilgan. Connell, Page va Meyer 2015-yilda turistik diqqatga sazovor joylar va tadbirlarning mavsumiylikka qarshi mahsulotlar sifatida rivojlantirilishini tahlil qilib, bunday qatorlarga maxsus tibbiy va sog'lomlashtirish dasturlarini kiritish samaradorligini asoslab berishdi [7]. Higham va Hinch 2002-yildagi keng qamrovli tahlilda mavsumiy turizmni "yangi mahsulot kategoriyalari" yaratishning strategik ahamiyatini ta'kidlab, sog'liq va sport turizmini birinchi navbatdagi yo'nalishlar sifatida belgilashgan [8]. Ularning xulosalariga ko'ra, mavsumiy konsentratsiyani yumshatishning eng samarali yo'nalishlaridan biri - iqlim va kalendarga bog'liq bo'lmagan motivatsiyaga ega turistlar segmentlarini jalb qilishdir.

Heung, Kucukusta va Song 2011-yildagi tadqiqotda Gongkong misolida tibbiy turizmning iqtisodiy ta'sirini empirik baholab, bu sektorning yillik turistik daromadning 15-20 foizini tashkil qilishi va past mavsumda ustunlik qilishini ko'rsatishgan [9]. Hall 2013-yildagi monografiyasida tibbiy turizm sohasidagi etik, tartibga solish va marketing masalalari kompleks tahlil qilinib, davlat siyosatining bu

soha rivojlanishidagi rolini chuqur o‘rganib chiqilgan [11]. Poccock va Phua tomonidan o‘tkazilgan qiyosiy tadqiqotda esa Tailand, Singapur va Malayziya misolida tibbiy turizmning sog‘liqni saqlash tizimlariga ta‘siri va siyosiy qo‘llab quvvatlashlar kontseptual ramkasi asosida tahlil qilingan [12]. Bularning hammasi tibbiy turizmning mavsumiylikka qarshi vosita sifatida xalqaro tan olinishini va uning empirik samaradorligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy tahlil va kontseptual umumlashtirish usullariga asoslangan. Asosiy metodologik yondashuvlar quyidagilardan iborat: birinchidan, qiyosiy adabiyotlar tahlili - 2000-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda tibbiy turizm va mavsumiylikka oid xalqaro ilmiy adabiyotlarning tizimli o‘rganilishi; ikkinchidan, sintez va kontseptual integratsiya - tibbiy turizm turlarining tasniflanishi va ularning mavsumiylikka ta‘sir mexanizmlarining birlashtirilishi; uchinchidan, deduktiv mantiqiy tahlil - tibbiy turizm va an‘anaviy turizm o‘rtasidagi mavsumiy farqlarning nazariy asoslanishi; to‘rtinchidan, xalqaro tajriba qiyosi - Tailand, Hindiston, Turkiya, Vengriya, Chexiya va boshqa yetakchi tibbiy turizm destinatsiyalarining amaliyoti tahlil qilinadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tibbiy turizmning asosiy turlari va tasnifi: Zamonaviy xalqaro adabiyotlarda tibbiy turizm keng qamrovli ko‘p qirrali soha sifatida tushuniladi va u to‘rt asosiy turga ajratiladi: klassik tibbiy turizm, wellness va sog‘lomlashtirish turizmi, balneologik turizm hamda profilaktik turizm. Har bir turning o‘ziga xos motivatsion va xulq-atvor xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular birgalikda tibbiy turizmning kompleks tarkibini shakllantiradi. Tibbiy turizmning umumiy tasnifi 1-rasmda taqdim etilgan.



1-rasm. Tibbiy turizmning asosiy turlari va tarkibiy elementlari¹

¹ Adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi

Klassik tibbiy turizm - bemorlarning tibbiy operatsiyalar, davolovchi muolajalar, yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam olish maqsadida xorijga sayohat qilishi bilan bog‘liq sohadir. Bu yo‘nalishda stomatologiya, oftalmologiya, kardiologiya, onkologiya, reproduktiv tibbiyot (IVF), plastik xirurgiya va reabilitatsiya markazlariga murojaat qilish keng tarqalgan. Bu segment bemorning shoshilinch tibbiy ehtiyoji bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli yil davomida turg‘un talab dinamik xarakteriga ega.

Wellness va sog‘lomashtirish turizmi - profilaktika, jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlash hamda sog‘lomashtirish maqsadida sayohat qilishni o‘z ichiga oladi. Bu yo‘nalish SPA-markazlar, massaj salonlari, yoga va meditatsiya markazlari, fitness va detoks dasturlari, anti-aging muolajalari, alternativ tibbiyot va aromaterapiyani qamrab oladi. Wellness turizm pandemiyadan keyingi davrda eng tez o‘sayotgan segmentga aylanib, sog‘liqqa e‘tibor va stress menejmenti talabining ortishi bilan bog‘liqdir [6].

Balneologik turizm - tabiiy davolovchi omillarga (mineral suvlar, termal manbalar, davolovchi loylar, iqlimiy, dengiz va tog‘ havosi) asoslangan davolanish va sog‘lomashtirish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Sanatoriy-kurort tizimi, klimatoterapiya, talassoterapiya (dengiz suvi va havosi bilan davolanish) va geliyoterapiya (quyosh nuri bilan davolash) bu yo‘nalishning asosiy tarkibiy elementlari hisoblanadi. Vengriya, Chexiya, Sloveniya va Avstriya kabi mamlakatlar balneologik turizm rivojlanishi bo‘yicha jahon yetakchilari hisoblanadi va bu soha ularning umumiy turistik daromadining sezilarli qismini tashkil qiladi.

Profilaktik turizm - kasalliklarning oldini olish, salomatlikni nazorat qilish va sog‘lom turmush tarzini o‘rganish maqsadida xorijga sayohat qilishni qamrab oladi. Bu yo‘nalishda tekshiruv va sog‘lik scrining dasturlari, genetik testlash, stress menejmenti dasturlari va sog‘lom turmush ta‘limi alohida o‘rin tutadi. Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarda yuqori texnologik diagnostic markazlar profilaktik turizmning yetakchi maqsadlariga aylangan. *Tibbiy turizmning mavsumiylikni yumshatish mexanizmlari*: Tibbiy turizmning an‘anaviy madaniy yoki sohil turizmidan asosiy farqi - uning mavsumga nisbatan past sezgirligi va yil davomida turg‘un talab keltirib chiqarishi bilan bog‘liqdir. Bu farq bir necha asosiy mexanizm orqali yuzaga keladi va tibbiy turizmning mavsumiylikka qarshi strategik vosita sifatida samaradorligini ta‘minlaydi.

Iqlim sezgirligining pastligi - tibbiy turizmning birinchi va asosiy farqlovchi xususiyatidir. An‘anaviy madaniy turistlar uchun ob-havo sharoitlari (harorat, yog‘ingarchilik, namlik) destinatsiya tanlovida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi - shuning uchun ham bahor va kuz oylari ko‘pchilik madaniy destinatsiyalar uchun cho‘qqi mavsum bo‘lib hisoblanadi. Tibbiy turistlar uchun esa asosiy motivatsiya

xizmat sifati, narx va shifokorlar mahorati bo'lganligi sababli, ular yil davomida ixtiyoriy vaqtda destinatsiya tanlay oladilar. Hatto ko'plab holatlarda yozgi yoki qishki past mavsumlarda kelish - past narxlar va kamroq omma tufayli - tibbiy turistlar uchun afzal hisoblanadi.

Talab manbasining kalendarga bog'liqligining yo'qligi - ikkinchi muhim mexanizmdir. An'anaviy turistlar oqimi maktab ta'tillari, davlat bayramlari va korporativ kalendarlarga moslashtiriladi va shu sababli mavsumiy konsentratsiyani shakllantiradi. Tibbiy ehtiyoj esa kalendarga emas, balki bemorning shaxsiy holati va shifokorlar tavsiyasiga bog'liqdir; shu sababli tibbiy turistlar oqimi yil davomida nisbatan tekis taqsimlanadi. Wellness va profilaktik turistlar ham odatda korporativ kalendaridan nisbatan mustaqil bo'lib, ular ko'pincha shaxsiy ta'til kunlarini o'z dasturlariga moslashtiradilar.

Yashash davomiyligining uzunligi - tibbiy turizmning uchinchi muhim afzalligidir. An'anaviy turistlar odatda 3-7 kun davomida destinatsiyada qolsalar, tibbiy turistlar yashash davomiyligi 1-3 hafta yoki undan ko'proq bo'ladi (rejaviy operatsiyalar, davolanish kursi, sog'lomlashtirish dasturlari uchun). Bu uzun yashash davomiyligi nafaqat moliyaviy tushumlarni oshiradi, balki har bir turistning destinatsiyada qolish kalendarini kengaytiradi va shu orqali talabning vaqtinchalik tarkibini tabiiy ravishda yumshatadi.

Yuqori xarajat va yuqori qiymatli segment - tibbiy turistlarning to'rtinchi farqlovchi xususiyatidir. Ularning o'rtacha xarajatlari an'anaviy turistlardan 3-5 baravar yuqori bo'lib, bu kichik miqdordagi turistlar oqimi orqali ham sezilarli iqtisodiy ta'sirni keltirib chiqarish imkonini beradi. Madaniy meros destinatsiyalari uchun bu juda muhim, chunki yuqori qiymatli segment past mavsumda mehmonxonalar bandligini ta'minlash va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ish bilan ta'minlanishini saqlashga yordam beradi.

Tibbiy turizm rivojlanishining xalqaro tajribasi: Xalqaro amaliyotda tibbiy turizmning mavsumiylikni yumshatish samaradorligi bir nechta yetakchi destinatsiya misolida empirik tasdiqlangan. Tahlilning yanada ishonchliligini ta'minlash maqsadida ushbu tajribalar 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

1-jadval

Tibbiy turizm rivojlanishining xalqaro tajribasi va mavsumiylikka ta'siri

Mamlakat	Asosiy yo'nalish	Maqsadli bozor	Mavsumiylikka ta'sir
Tailand	Klassik tibbiy + SPA + wellness	<i>Yaqin Sharq, AQSh, Avstraliya</i>	Mavsumiy past davrlarda barqaror oqim
Hindiston	Yuqori texnologik tibbiy operatsiyalar	<i>Yevropa, AQSh, Afrika</i>	Yil davomida turg'un talab
Turkiya	Plastik xirurgiya, soch transplantatsiyasi	<i>Yevropa, MDH mamlakatlari</i>	Past mavsumda 30-40% turistlar
Vengriya	Balneologik kurortlar (Budapesht termal hammomlari)	<i>G'arbiy Yevropa, Rossiya</i>	Qish va kuz oylari cho'qqi mavsum
Chexiya	Karlovi Vari sanatoriy-kurortlari	<i>Germaniya, Rossiya, Yaponiya</i>	Kuz va qish - asosiy talab davri
Janubiy Koreya	Profilaktik check-up va dermatologiya	<i>Xitoy, Yaponiya, Rossiya</i>	Yozda eng yuqori talab

Tailand 2000-yillarning boshlaridan boshlab tibbiy turizm rivojlanishining global yetakchilariga aylanib, hozirgi vaqtda yiliga 3,5 mln. dan ortiq tibbiy turistlarni qabul qiladi va sektor mamlakat YaIM ga ulushi 1,5 foizdan ortiq [10]. Bangkok va Pxuket shaharlaridagi yetakchi xususiy klinikalar yuqori xalqaro standartlarga mos keladi va Yaqin Sharq, AQSh va Avstraliyalik bemorlar uchun jozibador tibbiy destinatsiyalardan biridir. Hindiston ham xuddi shunday rivojlanish yo'lini bosib o'tib, narx-sifat nisbati bo'yicha raqobatbardosh tibbiy xizmatlarni taklif etadi va soha 2024-yilga kelib 13 mlrd dollarlik bozor hajmiga yetadi.

Vengriya va Chexiya tajribasi balneologik turizm va madaniy meros integratsiyasini namoyon etadi. Budapeshtdagi Szechenyi va Gellért termal hammomlari, Karlovi Vari dagi sanatoriy-kurort majmualari shaharning madaniy meros qiymati bilan birlashib, yil davomida turg'un sayyohlar oqimini ta'minlaydi. Bu tajriba madaniy meros destinatsiyalari uchun ayniqsa muhimdir: madaniy va tibbiy turizm bir-biri bilan ziddiyatli emas, balki to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi munosabatda bo'lishi mumkin. Tibbiy turistlar shu vaqtning o'zida shahar madaniy yodgorliklarini ham ko'rib chiqadi, bu esa shahar uchun qo'shimcha iqtisodiy va madaniy ta'sirni keltirib chiqaradi.

Turkiya 2010-yillardan boshlab plastik xirurgiya, soch transplantatsiyasi va stomatologiya bo'yicha global yetakchi mavqega ega bo'lib, yiliga 1,5 mln. dan ortiq tibbiy turistlarni qabul qiladi. Bu soha Antalya va boshqa Bahriy sohil hududlarining an'anaviy bahor-yoz mavsumiy talabini sezilarli darajada yumshatib, qish va erta bahor oylarida ham bandlikni ta'minlaydi. Janubiy Koreya esa profilaktik tibbiyot va dermatologiya bo'yicha yetakchilik qilib, qo'shni Xitoy va Yaponiya turistlarini jalb qiladi.

Ushbu xalqaro tajribalardan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, tibbiy turizm an'anaviy madaniy va sohil turizmiga qarama-qarshi rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lmay, balki uni to'ldiradi. Mavsumiylikni yumshatish vositasi sifatida tibbiy turizmning samaradorligi quyidagi shartlar mavjud bo'lganda eng yuqori darajaga erishadi: birinchidan, raqobatbardosh tibbiy xizmatlar va kvalifikatsiyalashgan kadrlar mavjudligi; ikkinchidan, infratuzilma (xalqaro klinikalar, akkreditatsiyalashgan markazlar, transport va mehmonxonalar) sifati; uchinchidan, davlat siyosatining qo'llab-quvvatlash vositalari (sertifikatsiyalash, marketing kampaniyalari, viza imtiyozlari).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot tibbiy turizmni turizm mavsumiyligini yumshatish strategik vositasi sifatida nazariy jihatdan tahlil qildi va xalqaro tajribadan kelib chiqib quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi. Tibbiy turizm to'rt asosiy turdan iborat - klassik tibbiy, wellness va sog'lomlashtirish, balneologik va profilaktik bo'lib, ularning hammasi mavsumga past sezgirliги bilan tavsiflanadi va yil davomida nisbatan turg'un talab keltirib chiqaradi. Tibbiy turizmning mavsumiylikka qarshi samaradorligi to'rt asosiy mexanizm orqali ta'minlanadi: iqlim sezgirligining pastligi, kalendarga bog'liqlik yo'qligi, uzoq muddatli yashash davomiyligi va yuqori xarajatli segment. Xalqaro tajriba (Tailand, Hindiston, Turkiya, Vengriya, Chexiya, Janubiy Koreya) tibbiy turizm rivojlanishining madaniy meros destinatsiyalarida mavsumiylikni samarali yumshatishi va iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashi mumkinligini empirik tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Madaniy meros destinatsiyalari uchun tibbiy turizmni mavsumiylikni yumshatish strategiyasiga integratsiyalashgan element sifatida kiritish tavsiya etiladi - balneologik va wellness yo'nalishlari ayniqsa madaniy turizm bilan tabiiy munosabatga ega bo'lganligi sababli, ular o'zaro raqobat emas, balki to'ldiruvchi sektorlar sifatida rivojlantirilishi lozim.
2. Tibbiy turizmni rivojlantirish uchun davlat darajasidagi kompleks strategiya zarur bo'lib, u quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi kerak: xalqaro standartlarga mos keladigan klinikalar va sanatoriylarni akkreditatsiyalash, kvalifikatsiyalashgan tibbiy

kadrlar tayyorlash, tibbiy turistlar uchun viza imtiyozlari, hamda maqsadli xalqaro marketing tashabbuslari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baum T., Lundtorp S. (ed.). Seasonality in tourism. – Elsevier, 2001.
2. Butler R. Seasonality in Tourism. Issues and Problems. Teoksessa: Tourism. The State of Art, toim. A. Seaton, 332--339. – 1994.
3. Carrera P. M., Bridges J. F. P. Globalization and healthcare: understanding health and medical tourism //Expert review of pharmacoeconomics & outcomes research. – 2006. – T. 6. – №. 4. – C. 447-454.
4. Hernández-Martín R., Padrón-Fumero N., Padrón-Ávila H. The local turn in tourism statistics within the statistical framework for measuring the sustainability of tourism 2024 //Sustainability. – 2025. – T. 17. – №. 4. – C. 1430.
5. Connell J. Medical tourism: Sea, sun, sand and... surgery //Tourism management. – 2006. – T. 27. – №. 6. – C. 1093-1100.
6. Smith M., Puczkó L. Health and wellness tourism. – Routledge, 2008.
7. Connell J., Page S. J., Meyer D. Visitor attractions and events: Responding to seasonality //Tourism management. – 2015. – T. 46. – C. 283-298.
8. Higham J., Hinch T. Tourism, sport and seasons: the challenges and potential of overcoming seasonality in the sport and tourism sectors //Tourism management. – 2002. – T. 23. – №. 2. – C. 175-185.
9. Heung V. C. S., Kucukusta D., Song H. Medical tourism development in Hong Kong: An assessment of the barriers //Tourism management. – 2011. – T. 32. – №. 5. – C. 995-1005.
10. Pattarachit, Choempol & Gozzoli, Pattarachit. (2022). Medical Tourism, Medical Hub and Thailand 4.0.
11. Hall C. M. Medical and Health Tourism in Medical Tourism The Ethics, Regulation, and Marketing of Health Mobility, CM Hall. – 2013.
12. Pocock N. S., Phua K. H. Medical tourism and policy implications for health systems: a conceptual framework from a comparative study of Thailand, Singapore and Malaysia //Globalization and health. – 2011. – T. 7. – №. 1. – C. 12.